4. Evristik suhbat metodi.

5. Ilmiy izlanish yoki ilmiy tadqiqot o‘tkazish orqali o‘rgatish metodi.

Xulosa. Bunday turli-tuman tasniflanishda o‘rgatish metodlari, usullari, tamoyillari o‘zaro aralashtirilib yuborilganligign ko‘rish mumkun. Shu sabab yuqorida keltirilgan barcha metodlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi R.K.Minyar-Beloruchevniig tasnifini tadqiqotimiz davomida ma’qul, deb topdik.

Taxlilarimiz davomida R.K.Minyar-Beloruchev nazariyasiga qo‘shilgan holda, umumiy xulosaga kelib, uning tasnifidagi o‘rgatish metodlarining umumiy xususiyatlari haqida to‘xtalamiz.

Demak, dars jarayonining samaradorligi pedagogni o‘quv faoliyatini tashkil qilishi va boshqarishga yo‘naltirgan faoliyati qay darajada yaxshi rejalashtirilganiga, bu reja qanday amalga oshirilganligiga bog‘liq, degan fikrga keldik. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish usullarining nazariy shakllanishi tarixiy muddat oralig‘ida o‘rganilayotgan muammo doirasida tahlil qilishda kechadi, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1998.

(2). Sirojiddinov Sh. Chet tillarini o‘qitishda lingvodidaktika. “O‘zbekistonda xorijiy tillar”, ilmiy-metodik elektron jurnal, 1-son, 2014.

(3). Yo‘ldoshev J.G‘, Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. «Fan va texnologiya», T., 2008.

(4). Аствацатуров Г.О. Дизайн мультимедийного урока. “Учитель”, Волгоград, 2010.

(5). Ажгибкова Т.Н. Технология применения аудиовизуальных средств обучения в вузах. “Инновации в образовании”, 2004, № 2, 111–123 с.

(6). Pedagogika. (A.Q.Munavvarovning umumiy tahriri ostida). “O‘qituvchi”, Toshkent, 1996, 9-bet.

(7). Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. “O‘qituvchi”, Toshkent, 1996.

(8). Рахманов И.В. Очерк по истории методов преподавания новых иностранных языков. Автореферат. докт.диссерт. М., 1949. Основные направления в методике преподавания иностранных языков XIX–XX вв.

(9). Chet til o‘qitish metodikasi. Ishchi o‘quv dasturi, Qarshi davlat universiteti, 2006.

Abdalieva Periuza Isaevna (Nukus davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi)

ONA TILI VA O‘QUV SAVODXONLIGINI O‘QITISHDA O‘QUV TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH METODOLOGIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarini o‘qitishda o‘quv topshiriqlaridan foydalanish texnologiyasi haqida so‘z yuritiladi. Ona tili va o‘qish savodxonligida o‘quv topshiriqlarining darsliklarda berilish xususiyati, o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishdagi samaradorligi o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘qish savodxonligi, ona tili, o‘quv topshiriqlari, didaktik vazifa, o‘qish va yozishga o‘rgatuvchi mashqlar, ko‘rgazmali mashqlar, nutq ko‘nikmasi.*

Абдалиева Периуза Исаевна (преподаватель Нукусского государственного педагогического института)

МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ И УЧЕБНОЙ ГРАМОТНОСТИ

Аннотация. *В данной статье рассматривается технология использования учебных заданий в преподавании родного языка и грамотности чтения. Изучены особенности представления учебных заданий по родному языку и грамотности чтения в учебниках, их эффективность в повышении уровня знаний учащихся.*

Ключевые слова: *грамотность чтения, родной язык, учебные задания, дидактическая задача, упражнения на чтение и письмо, наглядные упражнения, речевые навыки.*

Abdaliyeva Periuza Isaevna (Teacher, Nukus State Pedagogical Institute)

METHODOLOGY OF USING LEARNING TASKS IN TEACHING MOTHER TONGUE AND EDUCATIONAL LITERACY

Annotation. *This article examines the technology of using learning tasks in teaching native language and reading literacy. The features of presenting learning tasks in native language and reading literacy in textbooks and their effectiveness in improving students' knowledge levels were studied.*

Keywords: *reading literacy, native language, learning tasks, didactic task, reading and writing exercises, visual exercises, speech skills.*

Kirish (Introduction). Tilning ijtimoiy vazifasi nutq faoliyatida, ya'ni nutq sifatida odamlar orasida muloqat qilish, fikrlashishni amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Har xil davrlarda olimlar nutq faoliyati ta'rifiga turlicha yondashishgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ faoliyatini shakllantirish tizimi yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. A.Naurızbayeva, A.Najimova, A.Emberganovalar boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishga yo'naltirilgan tadqiqotlar olib borgan [1].


Bir qator chet el olimlaridan A.Krivileva, A.Kucheryavıy, I.Mostovaya, N.Sagina va A.Chizx, G. Selixova *o'quv* topshiriqlari b*o'*yicha, T.A.Sluxay *o'quv* jarayonida matnli fikrlashni rivojlantirish, E.A. Baronenko, L.T.Larinova, V.Y.Bluxov, T.M.Voiteleva, A.V.Koreneva, V.Korovina, R.I.Avanesov, A.P. Yeremeeva, E.I.Litnevskaya, V.A.Bogryanceva, E.S.Antonova, V.V.Babayceva, F.I.Buslaev, I.Y.Gats, F.F.Fortunovlar nutqni oshirish orqali nutqni rivojlantirishda metodik aloqalarga asoslanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Nutq faoliyati – insonlarning bir-birlariga tushunarli bo'lgan til yordamida o'zaro fikr almashuvlari, muloqatga kirishishi namoyon bo'ladi. Bu jarayon ikki shaklda amalga oshadi: og'zaki va yozma. Nutq faoliyatini verbal yoki noverbal, tamomlangan yoki tamomlanmagan, yakka shaxslar orasida yoki guruhli kabi bir nechta turlarga ajratish mumkin.

Shu joyda nutq ko'nikmasi va lingvistik kompetensiyaning o'zaro farqiga borish o'quv jarayonini to'g'ri rejalashtirish, uning vazifalari va samoradorligini anglashda zarurli ahamiyotga ega ekanligini aytish mumkin.

Nutq ko'nikmasi – o'z fikrini so'zlash vaziyatiga mos shaklda o'g'zaki va yozma shaklda to'g'ri, tekis anglash, o'zgalar fikrini tushunish va munosabat bildira olish mahorati.

Nutq ko'nikmasi quyidagicha bo'ladi (1-rasm).



Tinglab tushunish – eshitilgan, vizual qabul qilingan ma'lumot mazmunini anglash ko'nikmasi tajribasi bo'lib, bu metod yoki usul emas.

O'qıb tushunish – verbal (harf, so'z) yordamida ko'rsatilgan matn mazmunini tushunish.

So'zlash – fikrni so'zlash sharoitiga moslashtirib, og'zaki shaklda tasirli boyanlash ko'nikma/tajribasi.

Yozish – fikrni yozma shaklda so'zlash sharoitiga moslashtirib to'g'ri va mazmunli anglatish ko'nikma/tajribasi.

Biz maqolamizda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun «ona tili va o'quv savodxonligi» fanlaridan davlat milliy dasturida keltirilgan bilim ko'nikmalar quyidagicha bildirilgan.

Sh.Yuldashevanıng fikricha, "Ma'lumki, tinglab tushinish murakkab nutq faoliyati hisoblanadi. Sababi so'zlovchining radio, magnitofon, televideniya orqali yoki muloqat vaqtida aytilgan so'zlarni tinglovchi darhol qabul qilib, mazmunını tushunib, yodda saqlab qolishi kerak. Bunday so'zlarni qaytadan o'qib olish uchun zarurlik bolmaydi. Tinglab tushunish so'zlash bilan mahkam bog'liklidir. Tinglab tushunish ko'nikmasi egallangan bo'lsa, o'quvchida so'zlash ko'nikmasi ham yaxshi rivojlanadi" [2].

Qadimda ijtimoiy boshqarishda nutq asosiy vosita bo'lib xizmat qilib kelgan. Har bir shaxs o'z zaruriyatlarini, maqsadi va tilaklarini nutq orqali yetkazib beradi, biroq natijasi qanday bolishi shu nutqning darajasi, bajarilishi – aytilishi, va tovushlar mostligiga bogliq. Jahon ta'lim tizimida o'quvchining o'z so'zini og'zaki ayta olishiga nutqiga alohida e'tibor beriladi. Ayniqsa, xalqaro tillarni o'qitishda qo'llanilib kelayotgan usullar ko'p vaziyatlarda o'zini oqlayapti. Chunonchi, ingliz, rus tillarini ikkinchi til sifatida o'qitishda aniq nutq ko'nikmalarini rivojlantitishga yo'naltirish bugingi tajribalarda o'z tastigini topyapti. Shu o'rinda so'z nutq ko'nikmasiga qo'yiladigan talab qoraqalpoq tilini davlat tili sifatida o'qitishga maxsus bir darajada mos keladi, biroq ona tili ta'limi uchun to'g'ri kelmaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). "Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh kriteriyasi uning foydalilik va amalda qo'llana olish darajasi bolib topiladi. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr natijasini nutq sharoitiga mos og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, tekis

anglatish koʻnikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, uni yuqori insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni taminlaydigan bilimlarni tushunamiz" [3]. Bunda oʻquv topshiriqlar ta'lim mazmunini yuzaga chiqaruvchi zarurli omil hisoblanadi.

Asosan, qoraqalpoq auditoriyasida oʻquvchilarga tovushlarni oʻrgatishda faqat soʻzlash va darsliktagi umumiy grafik chizmasi bilan cheklanib qolmasdan, tovushlarning aytilishi ifodalangan maxsus chizmalar asosida bilim berish, soʻz soʻzlash mashqlariga boricha darslarda koʻproq oʻrin ajratish, yuqori sinflarda ulardan tizimli foydalanish adabiy til me'yorlarini egallashning, ta'sirli soʻz soʻzlashning zarurli omili ekanligini shu oʻrinda alohida atab oʻtish kerak.

Shunday qilib, bugungi kunning eng zarurli masalasi – qoraqalpoq tili ta'limini hayotga yaqinlashtirish, amaliy ahamiyatini kuchaytirish hisoblanadi. Qoraqalpoq tili orqali oʻquvchi fikrida olamning tillik koʻrinishi, milliy madaniyatlar shakllanadi. Agar dars jarayonida oʻquv predmeti emas, oʻquvchilarda oʻzoʻzidan terang oʻylash va milliy nomus shakllanadi. Shunda qoraqalpoq tilini oʻrganishga oʻquvchilarda katta qiziquvchilik uygʻonadi. Qoraqalpoq tili orqali oʻquvchilar milliy mentalititetni, turmishni, xalqning madaniy meroslarini oʻrganishi kerak.

Pragmatik xarakterdagi oʻquv topshiriqlarini ishlab chiqish orqali amalga oshadi. Ona tili mashgʻulotlarida oʻquvchilar soʻrash va topshiriqlar asosida tilning amal qilish qoidalarini oʻrganadi. Mashqlar tarkibida berilgan gaplar, matnlar oʻquvchining soʻz boyligini oshirashga xizmat qiladi, biroq ular ustida qanday ish olib borish hali muammo boʻlib qolmoqda. Ona tili va oʻqish savodxonligi darslarida anglash, tushunish, soʻzlashish, insho yozishni oʻrganib qolmasdan, topshiriqlar orqali oʻquv adabiyotlariga yoʻnaltirilsa, ona tilining jonli va tabiiy til ekanligiga ham ishonish foyda qiladi.

Qoraqalpoq tilida togʻri va ta'sirli soʻzlash samarali foydalanishni oʻrganish kerak, chunki siyosiy soʻzlashlardan tortib, oddiy maishiy suhbati, yigʻinlardagi individual soʻzlashishgacha barchasida xalq tajribasidan oʻtgan suhbatlar bir ogʻiz gapdan tushunadigan naql va aforizmlardan, obrazlı soʻzlardan foydalaniladi. Ushbu oquv materiallari ham, albatta, oʻquv topshiriqlari orqali koʻnikmaga aylantiriladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ona tili ta'limida lingvistik kompetensiyalar ham nutq kompetensiyalarining oʻzaro farqi anglash ham ta'lim jarayoniga toʻgʻri qoʻllanish kerak. Ona tili ta'limiga qoʻllanilib kelgan tinglab tushunish, oʻqıb tushunish, soʻzlashish va yozish koʻnikmalaridan ayrimlarini takomillashtirish, ona tili talablaridan kelib chiqip yangicha yondashishni talab qiladi. Masalan, soʻzlashish koʻnikmasi oʻzga tilni oʻrganishga mos keladi. Tilning tashuvchilari ona tilida soʻzlashishga oʻrgatilmaydi, ona tili ta'limi oʻquvchiga oʻz fikrini soʻzlashish vaziyatiga mos shaklda toʻgʻri va tekis anglatishni oʻrgatish kerak. Bunga soʻzlashish koʻnikmasini rivojlantirish orqali erishish mumkin.

"Ona tili va oʻqish savodxonligi" fanining milliy oʻquv dasturida ogʻzaki soʻzlashish va tinglab tushunish koʻnikmalariga qoyilgan talablarni takomillashtirish, bu koʻnikmalarining standartini aniq belgilab olish kerak. Umumiy orta ta'lim maktablarining "Ona tili va oʻqish savodxonligi" darsliklarida ogʻzaki soʻzlashishga tegishli oʻquv topshiriqlar yozma nutqga nisbatan juda oz miqdorda berilganligi tahlillar orqali koʻrsatilgan.

Oʻquvchini toʻgʻri va ta'sirli soʻzlashga oʻrgatish uchun unga didaktik ahamiyati katta boʻlgan prozayik matnlarni yodlatish ham yoddan xatosiz aytishni tashkil etish, bu jarayonda fonetik mashqlar, leksik mashqlar, orfoepik mashqlarni tavsiya qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati (References):

(1). Nauruzbaeva A.S. Yangi Oʻzbekiston sharoitida boshlangʻich ta'lim modernizatsiyasi dasturiy ta'minotini takomillashtirishning metodologik asoslari (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan boshlangʻich sinflarda qoraqalpoq tilini oʻqitish misolida). Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati, Nukus, 2024; Нажимова А.Д. Она тили дарсларида ўқувчиларнинг нутқини ўстиришга хизмат қилувчи машқлар тизими (таълим қорақалпоқ ва ўзбек тилларида олиб бориладиган бошланғич синфлар мисолида). Пед. фан. фалс. док. (PhD) ... дис. автореф., Нукус, 2022, 54-бет; Yembergenova A.A. Boshlangʻich sinf ona tili darslarida oʻquvchilarning imloviy savodxonligini takomillashtirish metodikasi (taʻlim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablar misolida). Ped. fan. fals. dok. (PhD). …dis. avtoref., Nukus, 2023, 52-бет.

(2). Юлдашева Ш.Ш. Давлат тили таълимида ўқувчилар нутқий малакаларини ўстиришнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. ном. дисс., Т., 2008, 23–24-бетлар.

(3). Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик кўлланма, Т., "Ўқитувчи", 1996. 9-бет.